

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Shermuhammadov, O.Raxmatov</b> Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni informatsion madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	8
<b>B.Shermuhammadov, D.Namozova</b> Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativ kompetentligini takomillashtirish modeli.....	13
<b>B.Shermuhammadov, B.Baratov</b> Bo'lajak o'qituvchilarni uzliksiz ma'naviy tarbiya jarayonida ma'naviy-madaniy fazilatlarini rivojlantirish shart-sharoitlari .....	18
<b>D.Yuldasheva, R.Bekmagambetova, Sh.Matkarimova</b> Bolalar poetik matnlarini pedagogik dizayn vositasida o'rgatish.....	22
<b>B.Qurbonova</b> Hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish .....	25
<b>I.Siddiqov</b> Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	29
<b>A.Xo'jayev</b> Kadrlar tayyorlash sifatini monitoring qilishda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish .....	33
<b>X.Qodirov</b> Professional-pedagogik madaniyatning xossasi sifatidagi innovatsionlikning shaxsiyat darajasida namoyon bo'lish tasniflari .....	38
<b>B.Baydjanov</b> Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash samaradorligi .....	42
<b>A.Turaxanov</b> Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talaba (kursant)larida jismoniy-taktik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari .....	49
<b>R.Madaliyev</b> Talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarning ahamiyati.....	52
<b>X.Yulbarsova</b> Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida .....	56
<b>A.Soyibnazarov</b> Ta'limda yangicha yondashuv tahlili: smart ta'lim.....	62
<b>S.Kamchiyev</b> Ertalabki gimnastikani kichik va o'rta guruhlarda o'tkazish usullari va mohiyati.....	67
<b>N.Mamatqulova</b> Ta'limda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari .....	71
<b>S.Sulaymanova</b> Tasviriy san'at fanlarida perspektivaning muhim ahamiyati va uning qo'llanilish xususiyatlari.....	75
<b>M.Aripjanova</b> Professional ta'lim o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalariga talablar tahlili .....	80
<b>D.Yo'ldosheva</b> Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari .....	83
<b>N.Dusimbetova</b> Bo'lajak jurnalistlarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirishning amaliyotdagi holati.....	88
<b>T.Turgunbayev</b> Harbiy ta'limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda (kursantlarda) vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik shakli, metodi va vositalari .....	92
<b>N.Yuldasheva</b> Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish borasidagi metodik yondashuvlar .....	95

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI UZLIKSIZ MA'NAVY TARBIYA JARAYONIDA  
MA'NAVY-MADANIY FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI****УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-КУЛЬТУРНЫХ КАЧЕСТВ В ПРОЦЕССЕ  
НЕПРЕРЫВНОГО ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ****CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF SPIRITUAL AND CULTURAL QUALITIES  
IN THE PROCESS OF CONTINUOUS SPIRITUAL EDUCATION OF FUTURE TEACHERS**

**Shermuhammadov Boxodirjon Shermuhammadovich<sup>1</sup>  
Baratov Baxtiyorjon Qodirovich<sup>2</sup>,**

<sup>1</sup>**Shermuhammadov Boxodirjon Shermuhammadovich** – Farg'ona davlat universiteti rektori,  
pedagogika fanlari doktori, professor

<sup>2</sup>**Baratov Baxtiyorjon Qodirovich** – Farg'ona davlat universiteti, tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada ma'naviy-madaniy fazilatlar tarbiyada eng qimmatli qadriyat sifatida, ta'limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish jarayonida rivojlanib, o'z navbatida o'quvchi shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalari asosida tarbiyalanishi, shuningdek, vatanparvarlik, insonparvarlik, yuksak axloq, mehnatsevarlik, xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega ekanligi bayon qilingan.*

**Аннотация**

*В данной статье духовно-культурные качества развиваются как значительная ценность в образовании, наряду с демократизацией образования, в процессе соблюдения воли и прав личности, и, в свою очередь, способности учащегося чувствовать ответственность и соблюдать сознательную дисциплину. Указано, что большое значение имеют воспитание патриотизма, гуманизма, высокой нравственности, трудолюбия, дружбы и сотрудничества между народами, добросовестности, организованности, справедливости и других качеств.*

**Abstract**

*In this article, spiritual and cultural qualities are developed as important value in education, along with the democratization of education, in the process of observing the will and rights of the individual, and, in turn, the student's ability to feel responsibility and observe conscious discipline. It is indicated that education is of great importance patriotism, humanism, high morality, diligence, friendship and cooperation between peoples, conscientiousness, organization, justice and other qualities.*

**Kalit so'zlar:** Ta'lim-tarbiya, ommaviy madaniyat, insonparvarlik, qadriyat, ma'naviyat, bilim, ilm, amaliy malakalar, iste'dod, qobiliyat, imon, e'tiqod, vijdon, insof, ixlos.

**Ключевые слова:** Образование, массовая культура, гуманизм, национальные и общечеловеческие ценности, духовность, знания, наука, практические навыки, талант, способности, вера, совесть, честность, искренность.

**Key words:** Education, mass culture, humanism, national and universal values, spirituality, knowledge, science, practical skills, talent, abilities, faith, conscience, honesty, sincerity.

**KIRISH**

Bugungi kunda ma'naviy tarbiyaning millat hayotidagi o'rni va vazifalari, uni shakllantiruvchi hamda takomillashtiruvchi institutlar faoliyati, globalashuv jarayonlaridagi turli tahdidlardan himoyalashda ma'naviy tarbiyaning rolini chuqur tadqiq etish muhim masalalardan biri sanaladi. Zero, "ommaviy madaniyat" kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, ma'naviy tarbiya va milliy qadriyatlarga putur yetkazmoqda"[1]. Ta'lim-tarbiyaning oldiga qo'yilgan muhim maqsad — umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlarga suyangan holda ta'lim-tarbiyaning mazmunida insonparvarlik g'oyalarini kuchaytirish, demokratiyalash, uning uzviyligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida yoshlarda savodxonlikni, ruhiy va ma'naviy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "Davlat jamiyatning ilmiy, texnikaviy va ma'naviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi, vatanimiz va jahon ilmiy va madaniy qadriyatlaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlaydi", — deb qayd etib qo'yilgan. Albatta, jamiyat, davlat, ta'lim

tizimining barcha bo'g'inlarida yoshlarni bugungi kunning talabiga mos ta'lim-tarbiya asoslari bilan uzluksiz ma'naviy qurollantirishdan manfaatdor.

Ma'naviy tarbiya bugungi kun yoshlarining tarbiyasida nechog'lik zarurligi, ularning O'zbekistonning porloq kelajagiga dadil ishonch bilan yuksalib borayotganligini, xalqimizda yuksak insonparvarlik qadriyatlari tiklanayotganligi va takomillashayotganligini ifodalovchi o'ziga xos dunyoqarashida ko'rishimiz mumkin. Ma'naviy tarbiya va unga qo'yiladigan talablar bu jamiyatda ma'lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida o'quvchilar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta'sir etishdir. Bo'lajak o'qituvchi, avvalo ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni, vazifalarini aniq tasavvur etishi va bu tarbiyani amalga oshirishda kompetentlik bo'lmog'i lozim.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta'minlash, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqildi. Shu bois respublikamizda uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi asosida yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish muhim hisoblanadi.

### OLINGAN NATIJALAR

Hozirgi mustaqillikni mustahkamlash sharoitida yoshlarga ma'naviy tarbiya berish, ularni ijtimoiy jihatdan faol, milliy istiqlol g'oyalarga sodiq ruhda tarbiyalash borasida pedagog olimlarimiz bilan bir qatorda faylasuf, tarixshunos olimlar ham samarali tadqiqotlar olib bormoqdalar E.Yusupov, A.Erkayev, Q.Nazarov, B.Ziyomuhamedov, T.Mahmudov, M.Imomnazarov, X.Boboyev, A.Jalolov, M.Nurmatov va boshqalar shular jumlasidandir. Faylasuf olim E.Yusupov ma'naviyatning asosini tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarini axloq-odob, bilim, ilm, amaliy malakalar, iste'dod, qobiliyat, imon, e'tiqod, vijdon, insof, ixlos, dunyoqarash va mafkuraviy omillardan iborat ekanligini ajratib ko'rsatadi va ma'naviyat tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: "Ma'naviyat-inson axloqi va odobi, bilimlari, iste'dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimdir"[2].

A.Erkayev esa ma'naviyat tushunchasining atama sifatida shakllanishida ilohiyot fani — Qur'oni Karim talqiniga bag'ishlangan ilm, keyinchalik tasavvuf ta'limoti kuchli ta'sir ko'rsatganini, "Ma'naviyat" so'zi rus tilidagi "duxviost" so'zining muqobili ekanligi, har ikki so'zning ma'nosi bir xil bo'lib, ikkisi ham Xudoga borib bog'lanishini ta'kidlab, ma'naviyatga quyidagi ta'rifni beradi: "Ma'naviyat ijtimoiy ongning nisbatan umumiy (umummilliy) ahamiyat kasb etgan, e'tiqod va qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan sobit ehtirolari, tushunchalari, me'yorlari, ijtimoiy mo'ljallari, amallaridir; ularning badiiy, ilmiy, falsafiy, diniy merosda, urf-odatlarda obyektivlashgan tizimi hamda millatni muayyan maqsadlarga erishish uchun yo'naltiradigan milliy iroda, milliy g'urur va or-nomusdir. U jamiyatda qaror topgan va insonning asl mavjudligini ta'minlaydigan aqliy va hissiy, ruhiy va mafkuraviy muhitidir"[3].

Bo'lajak o'qituvchi anglashi va uni chuqur o'zlashtirishi zarur bo'lgan masalalardan biri ma'naviy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo'yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan ta'lim-tarbiya mazmunida tub o'zgarishlar yuz berganligidir. Bundan tashqari ta'lim muassasasida o'quvchilarga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Zero, ta'lim tamoyillarida eng muhim, asosiy tamoyillardan biri ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo'lib, uning asosiy mohiyati o'quvchi shaxsiga insoniy munosabatda bo'lishni, ta'lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi. Bo'lajak o'qituvchi, avvalo ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni, vazifalarini aniq tasavvur etishi va bu tarbiyani amalga oshirishda kompetentlik bo'lmog'i lozim. Buning uchun bo'lg'usi pedagog shaxsning ma'naviy kamolotini belgilovchi fazilatlarini bilishi va o'zi ham shu fazilatlariga ega bo'lmog'i darkor.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli narsa qadriyat erkinlikdir. Ta'limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish jarayonida rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchi shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalarini

tarbiyalaydi. Shuningdek, vatanparvarlik, insonparvarlik, yuksak axloq, mehnatsevarlik, xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik, vijdonlilik, tartibli, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

### MUHOKAMA

Bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonida ma'naviy-madaniy fazilatlarni rivojlantirishda biz Y.K.Vasilev [4], V.A.Slastenin [5], Y.E.Smirnova [6], N.Shodiyev [7]larning tadqiqot ishiga tayanib, uning ichki tuzilishini ifodalovchi 4 ta parametriga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Ular quyidagilardan iborat:

- muammo (masala)lar, ya'ni o'qituvchi tomonidan ketma-ket ravishda hal qilinadigan muammolar;

- funksiyalar – o'qituvchining asosiy kasbiy vazifalarini umumlashgan tavsifi;

- faoliyat turlari, ular yordamida o'qituvchi masalalarni hal qiladi va yuqorida ko'rsatilgan funksiyalarni amalga oshiradi;

- o'qituvchi tomonidan muammolarni hal qilishda qo'llaniladigan usul va vositalar.

Bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash uning professiogrammasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunda biz o'qituvchi shaxsini asosiy parametrlarini ajratib olishga alohida e'tibor berdik. Ular jumlasiga

➤ Bilimlar,

➤ Ko'nikma va malakalar,

➤ O'qituvchining shaxsiy sifatleri.

Pedagogik faoliyatlar:

— Konstruktiv,

— Tashkilotchilik,

— Kommunikativ,

— Kasbiy sifatlar,

— Shaxsiy sifatlar,

— Ijodiy sifatlar va hokozalar kiritildi.

Shu o'rinda shuni ta'kidlash joizki Oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislarining hozirgi zamon talablari asosida puxta kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'z kasbining mohir ustasi bo'lib yetishishlariga asosiy e'tiborni qaratmoq zamonning muhim vazifasidir. Pedagoglar, tarbiyachilar qanchalik ma'lumotli, mahorat egasi bo'lsa, u kelajak avlodni ham shunchalik bilimdon, har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalay oladi. Bo'lg'usi pedagoglar ta'lim muassasada qanday moddiy-texnika bazasiga egaligini, unda qancha bola tarbiyalanishni, pedagogik jamoa qandayligini, u o'ziga xos qanday tarbiyaviy vazifalarni hal qilayotganini bilish zarurdir. Talabaga hisobotlar, jurnallar, bolaning shaxsiy varaqasi singari hujjatlar katta yordam ko'rsatishi mumkin. Bo'lg'usi pedagoglar o'z o'quvchilari haqida iloji boricha ko'proq axborot to'plashga harakat qiladi, pedagoglarning ishlarini ularning yordamida kuzatadi, shuningdek, pedagogika institutlari metodistlari yordamida g'oyaviy-siyosiy, axloqiy-aqliy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiya vazifalarini hisobga olgan holda kompleks yondashish pozitsiyasidan turib o'z faoliyatini rejalashtiradi.

Yangi sharoitlarda talabaning o'zini qanday his qilishi, uning bo'lg'usi faoliyatiga munosabati dastlabki amaliy qadamlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning kishilar bilan aloqasi xarakteri, ma'naviy tarbiyasiga ham bog'liq. Pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida shaxsning ma'naviy tarbiyasi, kasbiy qobiliyatlari va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatleri rivojlantiriladi. Talabalarning ma'naviyatini shakllantirish ular tomonidan ma'naviy-madaniy merosning qanchalik chuqur va teran o'zlashtirilganligiga bog'liqdir. Ma'naviy-madaniy meros – ma'naviy taraqqiyot mahsuli, inson aql-zakovati bilan yaratilgan, kelajak avlodni ezgu taraqqiyot sari yetaklash xususiyatiga ega bo'lgan, kishilarning ongi va dunyoqarashining o'sishi, olamni bilish va o'zlashtirish borasidagi sa'y-harakatlariga kuch-quvvat beradigan ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan azaliy qadriyatlar majmuidir.

### XULOSA

Mavzu bo'yicha topshiriqlar individual va guruh shaklda amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, topshiriqlarning bajarilishini o'qituvchi nazorat qila olishi va maslahatlar berishi mumkin. O'qituvchining asosiy vazifasi kursni to'g'ri tashkil etish va o'quv materiallarini taqsimlashdan iborat. O'qituvchi dars jarayonida qanday materiallarni o'zlashtirish, uyda nimani o'rganishi, qaysi topshiriqlar individual ishlash uchun, qaysi topshiriqlar guruh loyihalar bo'lishi

## PEDAGOGIKA

kerakligi haqida qaror qabul qilishi kerak. Yuzma-yuz darslarda talabalar loyiha ishlarini himoya qilishlari, taqdimotlarini namoyish qilishlari va talabalar hamda o'qituvchi o'rtasida bahs-munozaralar tashkil etishlari, onlayn shaklida esa loyihalar, ijodiy va amaliy vazifalar, nazorat testlarini tashkil etishlari mumkin.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayangan holda shuni aytishimiz mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonida ma'naviy-madaniy fazilatlarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini yaratish – bu bizning eng muhim va hayotiy vazifamizdir, chunki yoshlar bizning farzandlarimiz, Vatan istiqboli, millat taqdiri ularning kelajagida namoyon bo'ladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida // rasmiy nashr// O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent.: Adolat, 2019.–B.1.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 2017-2021 yillarda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi **PF-4947-son Farmoni**. 2017 y, 6-son, 70-modda.
3. Shermukhammadov B. Journal of Higher Education Theory & Practice, Creativity of a Teacher in an Innovative Educational Environment. 2022/9/1 Journal of Higher Education Theory & Practice, Tom 22/12.
4. Шермухаммадов Б.Ш. Использование различных методов, форм и средств в воспитании молодежи. - Том 3/3, - Москва, 2012. –С. 80-83.
5. Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. -Toshkent.: Ma'naviyat, 2002.-B.240.
6. Isayeva G. Bo'lg'usi pedagoglarning kasbiy fazilatlari // Xalq ta'limi.2004, №2.
7. Musurmonova O. O'quvchilarni ma'naviy madaniyatini shakllantirish. – Toshkent.: Fan, 1998. – B.112.
8. Ochil S. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. -Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 207 b.
9. Musurmonova O. Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogic diagnostikasi // Xalq ta'limi ilmiy-metodik jurnal. - 2011. -№4. -B.34-37.
10. Ma'naviyat, mafkura va milliy qadriyatlarning kishilar istiqloq ongi va dunyoqarashini shakllantirishdagi roli mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. -Samarqand: SamDU, 1999. –B.305.